

**Nuraliyeva Sora Bahodir qizi**

2nd Stage Student of the direction of Family Psychology of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

**Nuraliyeva Sora Bahodir qizi**

O'zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali Oila psixologiyasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Нуралиева Сара Бахадыровна**

Студент 2-го курса по направлению семейная психология Джизакского филиала Национального университета Узбекистана

## O'QITUVCHI PSIXOLOGIYASI

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada o'qituvchi va murabbiylar, pedagoglar, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy tashkilotchisi ekanligi, pedagogik qobiliyatlar, o'qituvchi psixologiyasining ba'zi xususiyatlari, pedagoglik odobining psixologik asoslari, o'qituvchining obro'yi, komponent, diktsiya, stilistika, gramatika, arxaizm haqida so'z boradi.

**KALIT SO'ZLAR:** O'qituvchi, murabbiylar, pedagoglar, ta'lim-tarbiya ta'lim tizimi, ta'lim sifati, qonunlar, majburiyat, huquqlar.

## ПСИХОЛОГИЯ УЧИТЕЛЯ

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье преподаватели и тренеры-педагоги рассмотрены то, что учитель является главным организатором образовательного процесса, педагогическое мастерство, некоторые особенности психологии учителя, психологические основы педагогической этики, репутация учителя, составляющая, дикция, обсуждаются стилистика, грамматика, архаизм.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Учитель, тренеры, педагоги, система образования, качество образования, законы, обязанности, права.

## TEACHER PSYCHOLOGY

**ABSTRACT:** In this article, teachers and coaches, pedagogues, the fact that the teacher is the main organizer of the educational process, pedagogical skills, some features of the teacher's psychology, the psychological foundations of pedagogical ethics, the teacher's reputation, component, diction, stylistics, grammar, archaism are discussed.

**KEY WORDS:** Teacher, trainers, pedagogues, educational system, quality of education, laws, obligation, rights.

## 1. KIRISH

O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy tashkilotchisi sifatida. O'qituvchi shaxsining asosiy xislatlari nima? O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi"da "Pedagog kadrlarni tayyorlash sifati va ular malakasining darajasi"ni oshirish zarurligi to'g'risida maxsus to'xtalib o'tiladi. O'qituvchi maktabdagi ta'lim-tarbiya protsessining asosiy tashkilotchisi. Mustakilligimizni muvaffaqiyatli qurilishi sharoitida, tobora o'sib borayotgan fan va texnika taraqqiyoti, mamlakatimiz iqtisodiy hamda madaniy saviyasining ortishi sharoitida joriy qilingan maktablarimizdagi yangi programmalar o'qituvchi oldiga ancha yuksak talablar qo'ymoqda.

Yosh avlod tarbiyasiga oid pedagogik ishlar maxsus uyushqoqlik hamda muayyan malaka va ko'nikmalarnigina emas, balki pedagogik qobiliyatlari kategoriyasiga taalluqli bir qancha psixik xususiyatlarning ham mavjud bo'lishini talab etadi. Quyida biz o'rta va oliy pedagogika o'quv yurtlaridagi hamda maktab pedagogik faoliyati praktikasidagi ta'lim jarayonida kamol topib boradigan ilg'or o'qituvchi shaxsining asosiy xislatlari quyidagilardan iboratdir:

1. Yosh avlodga ta'lim va tarbiya beruvchi o'qituvchi avvalo o'zining dialektik materialistik dunyoqarashi, g'oyaviy-siyosiy e'tiqodining yuksak

darajada ekanligi bilan boshqalardan ajralib turishi kerak. O'z hayotini xalqqa, mamlakatiga boglagan o'qituvchigina o'z vazifasini munosib tarzda ado etishi mumkin.

2. Bolalarga, pedagogik mehnatga mehr qo'yish, bolalar jamoasi bilan ishlash va birga bo'lishga moyillik muvaffaqiyatli ta'lim-tarbiya ishining mutlaqo zarur shartidir. O'qituvchining bolalarga mehr qo'yishi ular bilan pedagoglarcha muomalada bo'lishdan, o'ziga xos bolalar dunyosiga kirib borish imkoniyatidan chuqur qoniqish hissida, ularga nisbatan. bo'shanglik, marhamatlilik va ko'ngilchanglikka aylanib ketmaydigan diqqat-e'tibor hamda hushyorlikdan iborat do'stona munosabatda, bolalar bilan bo'ladigan munosabatning sodda va samimiy bo'lishida ifodalanadi.

Afsuski, hamma o'qituvchilar ham ana shunday sifatlarga ega emaslar. Ba'zilar pedagogik kasbini tasodifan tanlaganliklarini, maktab bilan bolalarni yoqtirmasliklarini, maktabda ishlash ularga malol kelib, o'z qilgan ishlaridan ko'ngillari to'lmaslik hislarini keltirib chiqarishini yashirmaydilar. Ayrim o'qituvchilar umuman maktabda ishlashga yaroqsizdirlar: ular zahar, serjahl, rahmsiz, quruq bo'ladilar, o'zlarida bolalarga nisbatan mudhish g'araz borligini sezadilar. O'z ishini sevmagan durustgina buxgaltarni tasavvur etish mumkinu, ammo bolalarni yoqtirmaydigan durustgina o'qituvchini, tarbiyachini tasavvur etib bo'lmaydi..

## 2. ASOSIY QISM

O'quvchilar juda ko'zatuvchan bo'lib, o'qituvchining o'z ishini haqiqatdan sevishini yoki o'z burchini qiynalib bajarayotganligini ziyraklik bilan payqab oladilar. Shu munosabat bilan sotsiologlar, pedagoglar va psixologlarning aniqlagan quyidagi faktlariga nihoyatda jiddiy yondoshish kerak: pedagogika institutlariga faqat pedagoglik ishiga qiziqqan va moyilligi bo'lgan kishilarga kirmaydilar. Masalan, rus olimi V. F. Saxarovning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, savol javob qilingan studentlarning atigi 49,4% gina o'qituvchilik kasbini qiziqqanligi va o'qituvchilik qilish istagi borligi uchun tanlagan. Studentlarning qolgan qismi pedagogika institutiga tasodifan kirib qolgan.

L. Borisova va V. Perevedentsevning ma'lumotlariga ko'ra, pedagogika institutga kirganlardan 70%igina o'qituvchilik qilishni istagan (bundan 5% i o'z bilimni boshqalarga berishni istaganligi, 5% i muayyan fanga qiziqishini va 20% i bolalarni yoqtirishini ma'lum qilgan). Sotsiologlar, pedagoglar, psixologlar hozir ana shu muammo ustida jiddiy ish olib bormoqdalar va pedagogika institutlarida o'qitishga munosib nomzodlar tanlash yuzasidan ilmiy jihatdan asoslangan tavsiyalar sistemasini ishlab chiqmoqdalar.

Pedagogik qobiliyatlar. Pedagogik qobiliyatlar deb atalmish qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bir-biriga

ta'sir etadi va bir butunlikni hosil qiladi. F. N. Gonobolin, N. V. Kuzmina, N. D. Levitov, I. V. Straxovning, shuningdek boshqa psixologlarning tadqiqotlari bu murakkab va ko'p tomonli psixologik bilim tizimini tasavvur etish imkonini berdi. Ana shu tadqiqotlarning ma'lumotlaridan foydalanib, pedagogik qobiliyatlarni quyidagi tarkibiy qismlarga alohida ajratish mumkin.

1. Didaktik qobiliyatlar o'qituvchining o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etish, material yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berish, o'quvchilarda mustaqil ravishda aktiv fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyati. O'qituvchi zarurat tug'ilgan hollarda o'zining didaktik qobiliyatlari bilan tegishli tarzda o'quv materialini o'zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila biladi.

O'quvchilarning psixologiyasini hamisha hisobga olib borish bu qobiliyatlarga asos qilib olinadi. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini, kamolot darajasini hisobga oladi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo'yganliklarini tasavvur etadi. Ko'pchilik o'qituvchilarga, ayniqsa tajribasi kam o'qituvchilarga material oddiy, tushunarli va qandaydir alohida izohni talab etmaydigan materialga o'xshab tuyuladi. Bunday o'qituvchilar o'quvchilarni emas, balki o'zlarini nazarda tutadilar, materialga o'zlariga tadbiquan qaraydilar.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi,

u kattalarga, aniq va tushunarli bo'lgan narsaning o'quvchilarga tushunarsiz va mavhum bir narsa bo'lishi mumkin ekanligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va formasini alohida o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

Qobiliyatli o'qituvchi materialni bayon etish jarayonida turli o'quvchilarning tushuntirilayotgan materialni qanday o'zlashtirayotganlarini qator belgilar asosida to'g'ri aniqlab oladi va zarurat tug'ilgan hollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi. Shuningdek, qobiliyatli o'qituvchi o'quvchilarning materialni o'zlashtirib olishlari uchun zamin tayyorlab, ularning dam olishdan ishga o'tishlari, ish holatini bo'shashtirishlari, ularning etiborlarini ishga qaratish, ba'zilarida "qo'zg'alishni o'chirish", boshqalarni "jonlashtirish", ularning bo'shshishlariga, lanjliklariga, loqaydliklariga barham berish uchun minimal darajada vaqt berish zarurligini hisobga oladi. U tegishli vaziyat yuzaga kelmaguniga qadar darsni boshlamaydi. Masalan, darsning haddan tashqari zo'riqish bilan va kuchli boshlanishi o'quvchilarda muhofaza qiluvchi tormozlanish deb atalmish tormozlanishga sabab bo'ladi, miya faoliyati tormozlanadi va o'qituvchining so'zlari etarli darajada idrok qilinmaydi.

2. Akademik qobiliyatlar fanning tegishli sohalariga oid (matematika, fizika, biologiya, adabiyot va hokazolarga doir) qobiliyatlar. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni

hamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, jilla bo'lmaganda oddiygina tadqiqot ishi olib boradi. ("I. I. ni professor deyaver! Ko'pincha biz, u o'z sohasidan bilmaydigan biror narsa bormikan, deb o'ylab qolamiz. U darsni butun vujudi, jonjahdi bilan o'tadi"; "Uning dabdabasi kattayu, bilimining mazasi yo'q").

3. Pertseptiv qobiliyatlar o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik psixik holatlarini juda yaxshi tushunish bilan bog'liq bo'lgan psixologik ko'zatuvchanlik. Qobiliyatli o'qituvchi, tarbiyachi arzimagan alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi ko'rinishlar asosida o'quvchining ichki holatidagi juda arzimagan o'zgarishlarni ham fahmlab oladi. ("Qaramayotganga o'xshaydi-yu, hamma narsani ko'rib turadi!", "E. P. biror o'quvchining xafa bo'lganligini yoki dars tayyorlamaganligini ko'zidan biladi".)

4. Nutqiy qobiliyatlari nutq yordamida, shuningdek mimika va pantomimika vositasida o'z fikr hamda his-tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o'qituvchilik kasbida eng muhim qobiliyatlardan biridir, chunki bunda axborotning o'qituvchidan o'quvchiga o'tishi asosan ikkinchi signalli, so'z xarakterida bo'ladi. Bu erda nutqning ham ichki (mazmun) xususiyatlari, ham tashqi xususiyatlari bo'ladi. ("Bizlar hech kimning gapidan adabiyot o'qituvchimizning gapini tinglaganimizdek mamnun bo'la olmaymiz. U qanday chiroyli gapira oladi! Qo'ng'iroq chalinib qolgani alam qiladi".)

Qobiliyatli o'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, maqullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi. Axborot tarzidagi bayon qilish o'quvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada aktivlashtiradigan qilib tuziladi. O'qituvchi o'quvchilar oldiga savollar qo'yib, ularni astasekin to'g'ri javob berishga olib boradi, o'quvchining diqqatini ishga soluvchi hamda fikrini aktivlashtiruvchi ("Mana shu eriga alohida e'tibor bering!", "O'ylab ko'ring!" kabi) so'zlar va iboralarni qo'llanadi. Lekin so'z va iboralar noo'rin qo'llanmaydi.

O'qituvchi o'zundanuzoq jumlar, murakkab so'z birikmalari, qiyin terminlar va iboralarni qo'llanishdan qochadi (agar ularni qo'llanishga zarurat bo'lmasa). Shu bilan bir qatorda u ortiqcha lo'nda, qisqa nutqning ko'pincha o'quvchilarga unchalik tushunarli bo'lmasligini nazarda tutadi. O'rinni yumor, hazil, engilgina istehzo nutqni juda jonlashtirib yuboradi va uni o'quvchilar juda yaxshi qabul qiladilar. Qobiliyatli o'qituvchining nutqi aniq diktsiya bilan ifodalanadigan jonli, obrazli, talaffuzi jihatidan yorqin, ifodali emotsional bo'yoqli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar bo'lmaydi. Bir xildagi cho'ziq, zeriktiradigan monotonli nutq tinglovchilarni juda tez charchatib

qo'yadi, ularda lanjlik, zerikish va loqaydlik holatlarini keltirib chiqaradi, bir xil ta'sir qiluvchi qo'zg'ovchiga aylanadi.

I. P. Pavlovning ta'limotiga ko'ra, bunday qo'zg'ovchi bosh miya po'stida tormozlanish jarayonini tezda paydo qiladi va o'quvchini lanj hamda uxlaydigan qilib qo'yadi. Nutqning tempi o'qituvchining individual psixologik jususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Bir xil o'qituvchilar tez gapirishga, boshqalari sekin gapirishga moyil bo'ladilar. Biroq o'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun o'rtacha tempdagi jonli nutq yaxshi natija berishini hech qachon unutmaydi. Shoshqaloqlik tempi materialni o'zlashtirishga halaqit beradi va tinglovchini tez charchatib qo'yadi, muhofaza qiluvchi tormozlanishni paydo qiladi. Haddan tashqari sekin nutq tempi lanjlik va zerikishga sabab bo'ladi.

Nutqning qattiqligi ham shunga o'xshash ta'sir ko'rsatadi. Haddan tashqari qattiq, keskin, baqiroq nutq o'quvchilarning asabini buzadi, tez toliqtirib, muhofaza qiluvchi tormozlanishni yuzaga keltiradi; o'qituvchining zaif, osoyishta ovozi yomon eshitiladi. Imoishoralar nutqni (shuni ham aytib qo'yish kerakki, qobiliyatli o'qituvchining nutqini) jonlantiradi. Nihoyatda ko'p takrorlanadigan bir xildagi besaranjon keskin imo-ishoralar va harakatlar, kishining g'ashini keltiradi.

5. Tashkilotchilik qobiliyatlari birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish qobiliyatlari, ikkinchidan, o'z shaxsiy ishini to'g'ri uyushtirish

qobiliyatlaridir. O'z ishini tashkil etish deganda ishni to'g'ri rejalashtira olish va uni o'zi kontrol qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtni o'ziga xos his etish ishni vaqtga qarab to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyatlari hosil bo'ladi. Dars davomida kutilmaganda ortiqcha vaqt sarflash hollari ko'pincha uchray turadi, albatta. Ammo tajribali o'qituvchilar zarurat tug'ilgan hollarda darslarning rejalarini o'zgartira oladilar.

Tajribali o'qituvchilar "vaqtni his etish" xususiyatini hosil qilish uchun dars planlari yoki konspektlarida vaqtni kontrol tarzda belgilashni: darsda 10, 20, 30 va hokazo minutlar o'tishi bilan nima qilish kerakligini belgilab qo'yishni, foydalanilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha material tayyorlashni agar kutilmaganda vaqt sarflash kerak bo'lib qolsa, bu darsdan olib tashlash yoki navbatdagi darsga o'tkazish mumkin bo'lgan materialni belgilab qo'yishni tavsiya qiladilar.

6. Avtoritar qobiliyatlar o'quvchilarga bevosita emotsional irodali ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olish qobiliyati (garchi obro' faqat shu asosdagina emas, balki masalan, o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va hokazolar asosida qozonilsa ham). Avtoritar qobiliyatlar o'qituvchi shaxsiy sifatlarini butun bir kompleksiga, chunki uning irodaviy sifatlariga (dalilligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va hokazolariga), shuningdek o'quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish mas'uliyatini his etishga, o'zining hak ekanligiga ishonishiga, bu

ishonchni o'quvchilarga ham etkaza olishiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilar (ayniqsa o'g'il bolalar, o'spirinlar buni alohida ta'kidlab o'tamiz) qo'pollik bilan majbur qilmasdan, qo'rqmasdan, shuningdek keraksiz rasmiyatchiliksiz talab qila oladigan, o'z maqsadiga erisha oladigan o'qituvchilarni juda hurmat qiladilar. Shu bilan birga o'quvchilar o'qituvchining bo'shanganligini, nihoyatda laqmaligini, printsipsizligi va irodasizligini bir ovozdan qoralaydilar. ("O'zi yaxshi odamu, lekin juda yumshoqda, uni aldash hech gap emas", "Uning qanaqa odam ekanligini tushunib bo'lmaydi: bir qarasang qattiq qo'l, bir qarasang hech narsa talab qilmaydi". "Juda bo'shang: uni ko'rganingda uyqing kelad".)

7. Kommunikativ qobiliyatlar bolalarga aralashish qobiliyati, o'quvchilarga to'g'ri yondoshish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, tarbiyaviy ta'sir usullarini topa olish, tarbiyaviy ta'sir usullarini qo'llanishda pedagogik nuqtai nazardan eng yaxshi choraga rioya qila bilish, konkret pedagogik vazifani, o'quvchi shaxsining xususiyat va imkoniyatlarini hamda muayyan pedagogik vaziyatni hisobga olib bilishdir. Xar bir o'quvchi shaxsining qadr-qimmatini hurmatlash, irodaviy vazminlik, muomaladagi soddalik, oddiylik, tabiiylik, samimiylig va xayrixohlik xislatlarini bila olishi.

Istalgan pedagogik ta'sirni qo'llashda (rag'batlantirish, jazolash, pandnasihat qilishda) me'yorni sezish pedagogik nazokati ko'rinishlaridan biridir. Nazokatli o'qituvchi bolalarga

iltifotli va g'amxo'r bo'ladi, ularning individual psixologik xususiyatlari bilan hisoblashadi. Pedagoglik nazokatining yo'qligi ko'pincha og'ir oqibatlariga olib keladi.

8. Pedagogik xayol o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'rishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab etishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarini taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati. O'qituvchi uchun diqqatni barcha xususiyatlari hajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi, ham idora qilina olishi va ishga solinishining taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir. Rus psixologi I. V. Straxov o'qituvchida aktiv, to'plangan barqaror diqqatni sinfda yuz berayotgan hamma narsaga tez va amaliy tarzda tushunishda ifodalanuvchi. diqqatning taraqqiy etgan taqsimlanishi bilan uyg'un ravishda birga qo'shish zarurligini ta'kidlab o'tadi.

Diqqatni ayni bir vaqtda faoliyatning bir qancha turlari o'rtasida taqsimlash qobiliyati o'qituvchining ishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi materialni bayon qilish mazmunini va formasini, o'z fikrini (yoki o'quvchining fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni o'z diqqat e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik

bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z shaxsiy xatti-harakatlarini (turqi, mimikasi, pantomimikasi, yurishturishini) kuzatib boradi. Tajribasiz o'qituvchi ko'pincha materialni bayon qilishga berilib ketib, shu vaqt ichida o'quvchilarni e'tibordan chetda qoldiradi, kontrol qilmay qo'yadi, bordiyu, o'quvchilarni diqqat bilan kuzatishga harakat qilsa, bayon qilish kalavasini yo'qotib qo'yadi.

O'qituvchi psixologiyasining ba'zi xususiyatlari. O'qituvchida qobiliyatlar bilan birga mehnatsevarlik xususiyati ham bo'lishi shart. Ishchanlik, yani ko'p va samarali mehnat qila bilish, har bir darsga, har bir suhbatga, sinfdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan har bir tadbirga puxta tayyorlanish o'qituvchilik faoliyatining mutlaqo zarur shartidir. O'qituvchi o'z mehnatini ijodiy mehnatga aylantirganida, pedagoglik ishining amaliy tomonlarini, nazariyasini astoydil o'rganib ish tutganida, boshqalarning tajribasidan foydalanib, o'zi ham ijod qilib, tashabbus ko'tarib yumush qilganida o'zining chinakam ishchanlik qobiliyatini ko'rsatgan bo'ladi.

Pedagoglik qobiliyatini rivojlantirishda o'qituvchilik kasbga qiziqish, havas katta rol o'ynaydi. Aslini olganda, odamdagi bu qimmatli sifatlar bir-biriga uzviy bog'liqdir. Qiziqish bilan bajariladigan faoliyat, u qanchalik murakkab bo'lmasin, hatto muvaffaqiyatsizliklarga uchramasin, kishiga katta ichki qoniqish, mamnuniyatlik baxsh etadi. O'qituvchining bilimi qanchalik keng va chuqur bo'lsa, unda o'quvchilarga

shu bilimni berish ishtiyoqi shunchalik zo'r bo'ladi. Bunday o'qituvchi eng yaxshi pedagog hisoblanadi, ularning ko'pchiligi o'z fanining ustalari, metodistlari bo'lib qoladi.

O'qituvchining diqqati va kuzatuvchanlik qobiliyati. Ta'lim-tarbiya ishi o'qituvchidan katta diqqat va kuzatuvchanlikni talab qiladi. O'qituvchi chinakam pedagoglarga xos sezgirlik, kuzatuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu xususiyat bola ko'nglida sodir bo'layotgan narsalarni ham payqab olishga yordam beradi. Sezgir va kuzatuvchan o'qituvchi o'quvchining ko'rinishi va harakatidan uning rost yoki yolg'on gapirayotganligini, ko'nglidan nimalar o'tayotganligini, nimalar qilmoqchi ekanligini tez payqab oladi.

Har qanday kuzatish yaxshilab diqqat qilish asosida sodir bo'ladi. O'qituvchi o'quv materiallarini tushuntirayotganda, doskaga yozayotganda yoki o'quvchini chiqarib doskaga yozdirayotganda ko'rsatma qurollardan foydalanayotganda, o'quvchilarning kanday idrok qilib, topshiriqlarni qanday bajarayotganini hamisha diqqat-e'tibor bilan kuzatib boradi.

O'qituvchi dars berayotganda hamma o'quvchilarni ko'rib turishi va ayrim o'quvchilar diqqatining boshqa narsalarga chalg'ib ketishining oldini olishi, masalan, o'quvchiga jiddiy bir qarab qo'yishi, imo-ishora, pauza, intonatsiyani o'zgartishi zarur. Bularning hammasi o'qituvchi diqqatining barqaror bo'lishini va tez ko'chirish xususiyatiga ega bo'lishini talab qiladi. O'z diqqatini taqsimlashni bilmagan o'qituvchi darsda juda qiynaladi. U diqqatini bir narsaga,

chunonchi, doska oldidagi o'quvchi bilan band qiladida, boshqa o'quvchilarning nima qilayotganligini ko'rmaydi, sinfda intizom izdan chiqadi.

O'quvchilarning yozma ishlarini e'tibor bilan tekshirish o'qituvchidan diqqatning nihoyatda kuchli va chuqur bo'lishini taqozo qiladi. Tajribali o'qituvchilar bir o'quvchidan so'raganda, boshqasini doskaga chiqaradi, uchinchisiga qaraydi, to'rtinchisining yoniga boradi, beshinchisiga individual topshiriq beradi va hokazo. Bularning barchasi ortiqcha ogohlantirishsiz bajariladi va qolgan o'quvchilar ham diqqat ko'lamidan chetda qoldirilmaydi. Bu, birinchidan, ta'lim-tarbiya vazifalarining muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlasa, ikkinchidan, o'quvchilar diqqatining o'quv faoliyatiga har doim aktiv yo'naltirib borilishi natijasida ularda ixtiyoriy barqaror diqqat tarbiyalanib boradi. Demak, ta'lim-tarbiyadagi muvaffaqiyat o'qituvchi diqqati va kuzatuvchanligining yuqori sifatga ega bo'lishiga ham bog'liqdir.

O'qituvchi nutqining xususiyatlari. O'quvchilar bilimlarni eng birinchi navbatda o'qituvchining jonli nutqi orqali oladi. SHuning uchun o'quvchilarning fanlarni puxta o'zlashtirish darajasi o'qituvchi nutqining sifatiga ham bog'liqdir. O'qituvchining nutqi leksika, fonetika, talaffuz, gaplarni to'g'ri tuzish, so'zlarda urg'ularni o'z joyiga qo'yib gapirish va hokazolar jihatidan to'g'ri bo'lishi kerak. Nutqda fikrlar izchil, mantiqli, asosli va ishonchli bo'lishi lozim.



O'qituvchi o'z nutqida shevachilik, arxaizmlarga yo'l qo'ymasligi kerak. Ta'lim-tarbiya ishida nutqning tasir kuchi nihoyatda kattadir. O'qituvchining nutqi o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, xulq-atvori va fikr yuritishlariga ham ta'sir etuvchi kuchli vositadir. O'qituvchining nutqida uning hissi, intilishlari, iroda va e'tiqodi aks etadi. U nutq yordami bilan o'quvchilarda xursandlik, ruhlanish, muhabbat, sadoqat, g'azablanish, nafratlanish hislarini tug'diradi.

Nutqning ta'sir ko'rsatuvchi funksiyasida intonatsiya katta rol o'ynaydi. Intonatsiyada nozik va murakkab hislar va xarakter xususiyatlari, norozilik, istak, talab hislari va shu kabilar namoyon bo'ladi. SHuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarni dars materiallarini puxtaroq o'zlashtirib olishga da vat etmoqchi, malum bir harakatga yo'llamoqchi bo'lganda, o'z nutqida talaffuzga, intonatsiyaga alohida e'tibor beradi.

O'qituvchining o'z fikrini ma'lum sistemaga solib bayon qilishi ham katta ahamiyatga egadir. Bunday nutqda navbatdagi fikr o'zidan oldingi fikrdan kelib chiqishi, yani yangi fikr o'quvchilarga ma'lum bo'lgan fikrlarga asoslanib bayon qilinishi, notanish so'zlar darhol tushuntirilib berilishi kerak. Mohir o'qituvchining nutqi o'zining engil uslubi, yorqinligi, shiraliligi bilan farq qiladi. Bunday nutqda qiziqarli faktlar, yangiliklar, o'rnida keltirilgan. misollar ko'p bo'ladi.

O'qituvchi o'zining talablarini, shuningdek, o'zining tanqidiy fikrlarini o'quvchilarning joniga tegadigan,

qaysarligini qo'zg'atadigan uzun, zeriktirarli pand-nasihatga aylantirmay, qisqa ifodalab berishi kerak. Yangi bilimlarni o'zlashtirishda o'qituvchi nutqining sur'ati ham ma'lum darajada ahamiyatlidir. Agar nutq sur'ati tez bo'lsa, o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiallarini bir-biriga bog'lab, ongli ravishda idrok qilishga tushunib olishga ulgura olmaydi.

Aksincha, nutq sur'ati juda sekinlashib, pauzalar cho'zilib ketsa, fikrlar o'rtada uzilib, bir-biriga bog'lanmay qoladi. Bunday nutq o'quvchilarni zeriktirib, diqqatlarini susaytiradi. O'qituvchi nutqining bir xil ovozda, monotonli bo'lishi o'quvchilarni tez zeriktirib qo'yadi. Haddan tashqari baland ovozda gapirish o'quvchilarni asabiylashtiradi, idrok sifatini pasaytiradi.

O'qituvchining o'z nutqida grammatika talab qilmagan so'zlarni ishlatishi (jumladan, "shunday qilib", "demak", "yani", "masalan", "aytaylik", "xo'sh" kabi "parazit" deb ataluvchi so'zlar), hatto ularni har gapda takrorlayverishi o'quvchilarga ayniqsa yomon ta'sir qiladi. Shuningdek, o'qituvchining nutqi juda ham uzun, juda ham qisqa bo'lmasligi lozim. Uzundan-uzun nutq o'quvchilarni toliqtiradi, o'quvchi bunday nutqdan asosiy fikrlarni ajratib ololmaydi. Juda qisqa, zarur bo'lgan to'ldiruvchi, aniqlovchi so'z va gaplari bo'lmagan nutqda fikr etarli to'liq bo'lmaydi. Bunday qisqa nutqni o'quvchilar yaxshi tushuna olmaydi.

O'qituvchi tafakkurining xususiyatlari. O'qituvchining tafakkuri asosan o'quv materiallarini mustaqil planlashtirish va sistemali bayon

etishda namoyon bo'ladi. O'quv materialini sistemali ravishda bayon qilish uni aniqroq, onglirok idrok qilishni va yaxshiroq esda qoldirishni ta'minlaydi. O'qituvchi o'quv materialini kitob tilida, darslikda bor bo'lganlarga asoslanib bayon etmay, har doim ijodiy ish ko'rishi lozim. Uning fikri qat'iy, izchil, aniq dalillarga asoslangan bo'lishi shart. O'qituvchi o'quv materiallarini induktiv va deduktiv me-todlardan foydalanib tushuntirishi kerak. Shu bilan birga, o'qituvchi o'quvchilarni faktlardan mustaqil ravishda xulosalar chiqarishga va umumiy berilgan qonun-qoida va tushunchalarga asoslanib, ayrim fakt, xulosalarni tushuna olishga o'rgatishi zarur. O'qituvchi keltirgan gapdagi fikrlarni isbotlay olishi, asoslanmagan fikrlarni rad etish yo'llarini egallashi lozim.

O'qituvchi abstrakt tushunchalarni konkret tushunchalar bilan bog'lay olishi kerak, yani o'qituvchi bolalarga biror qoidani aytgach, unga darrov konkret misollar ham keltirishi lozim. Dars vaqtida o'quvchilar tomonidan kutilmagan savollar berilib qolgan holda, o'qituvchi ustalik bilan o'ylab javob berishi yoki bu savolga keyinroq ishonarli dalillar bilan javob berajagini aytishi va albatta bu vadasining ustidan chiqishi zarur. O'qituvchi tafakkurining mazmunliligi, tezligi, kengligi kabi sifatlari bolalarga o'z bilimlarini aniq, mazmunli, tushunarli qilib so'zlab berishda ham namoyon bo'ladi.

O'qituvchining irodaviy sifatlari. Pedagogik faoliyati ta'lim-tarbiya maqsadlariga muvofiq yo'naltirilgan

hamda ko'pgina qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatdir. Shuning uchun xam bu faoliyat kishidan katta irodaviy kuch talab qiladi. Bu qiyinchiliklar darsga tayyorlanish, ko'rgazma qurollari tayyorlash, bolalarga bilim berish va ularni ishontirish, sinfda intizom uchun kurashish va hokazolardir. Bu qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun g'ayrat, chidam, sabr-toqat, umuman kuchli iroda kerakdir.

O'qituvchidagi e'tiqod, dunyoqarash, burch hissi pedagoglik ishidagi muvaffaqiyatlar garovidir. Agar o'qituvchida ehtiros va qiziqish zo'r bo'lsa, u o'zini kuchli his qiladi, qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli bartaraf etadi. O'qituvchi faoliyatida eng muhim xususiyat maqsadga intilish yo'lida tinmay harakat qilishdir. Bizning ajoyib yosh avlodlarimizni bunyodga keltirgan ijtimoiy-tarbiyaviy ishimizning chinakam olamshumul muvaffaqiyatining siri ana shunda.

O'qituvchining asosiy maqsadi hamma o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'qishiga erishishdir. Mana shu asosiy vazifani bajarish yo'lida o'qituvchi qator qiyinliklarni engadi. Bunday qiyinchiliklardan biri, masalan, darsda intizom masalasidir.

Ba'zi sinflarda intizomning yomonligi o'qituvchilarning bu masalaga zarur darajada e'tibor bermasligi, bu borada tegishli tadbirlarni ko'rmasligidir. Dars vaqtida yaxshi intizom bo'lishining asosiy shartlaridan biri o'qituvchining talabchanligidir. Sinfda intizomni saqlash vazifalarini bajarish maqsadida o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishi juda muhimdir. O'qituvchi o'z oldiga

qo'ygan maqsadiga qanchalik intilsa, bolalarga shunchalik ko'p ta'sir ko'rsatadi. Darsda intizom yomonlashsa, uning sabablaridan biri o'qituvchining dangasaligi, sinfdagi tartibga beparvo qarashidir.

O'qituvchilarga ta'sir etishda ishontirish alohida o'rinni egallaydi. Rus pedagogi A. S. Makarenko o'z tarbiyachilariga zo'r ishonch hissi bilan qarar edi. "Sen xuddi menga o'xshagan halol kishisan" deb ishontirardi u o'z tarbiyalanuvchisini, unga bankaga topshirib kelish uchun. katta miqdorda pul berib. Afsuski, ba'zi o'qituvchilar o'z o'quvchisiga ishonmaydi, unga sen "qobiliyatsizsan", "qaysarsan", "tuzalmaysan" deb tanbeh beraveradi.

O'qituvchining irodasi o'z psixik jarayonlarini sharoit talabi bilan ongli ravishda tormozlantirishida, ayniqsa keraksiz his-tuyg'ularni bosib turishda ko'rinadi. Ba'zan bolaning xulqi o'qituvchida qonuniy ravishda g'azab tug'diradi. Lekin bunday vaziyatda o'qituvchi o'zini tutishi, vazmin bo'lishi kerak. O'qituvchining irodaviy sifatiga sabotlilik xosdir. Bu boshlagan ishni muvaffaqiyat bilan oxiriga etkaza olishda namoyon bo'ladi. Bu iroda sifati o'qituvchining matonatida, qiyin holatda o'zini tuta bilishida, o'qituvchilarga qat'iy talablar qo'ya bilishida ham ko'rinadi.

Pedagogning talabchanligi uning o'quvchilarga bo'lgan mehribonligi va xushmuomalaligida o'z aksini topadi. Agar bular bo'lmasa, o'rinsiz talablarni qo'yaversa o'qituvchi o'quvchilari oldida quruq, mehirsiz, qattiq qo'l, shafqatsiz kishi bo'lib qoladi. O'quvchilarga talab qo'yilganda, ularning sharoiti, individual xususiyati hisobga olinishi

kerak. Irodali, talabchan o'qituvchi haqiqatchi, sezgir, g'amxo'r bo'ladi.

Pedagoglik odobi nima? Pedagoglik ta'sir etishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglik odobini egallashga bog'liqdir. Pedagoglik odobi o'qituvchining o'quvchilar bilan to'g'ri munosabatda, yaxshi muomalada bo'lishi, ularga g'amxo'rlik qilishi, ularning oldiga oqilona talablar qo'yishi, o'quvchilarda inson qadr-qimmatini hurmatlashi demakdir. Qisqasi, pedagoglik odobi tarbiyalanuvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishdagi me'yor hissidir.

K.D.Ushinskiy pedagoglik odobi haqida shunday deydi: "Maktabda hazilga yo'l qo'yuvchi jiddiylik hukm surishi lozim, ammo hamma ish hazilga, ermakka, sertakalluflikka, adolat tirnoq ostidan kir izlashga, yaxshilik muloyimlikka, tartib bachkanalikka aylanib ketmasligi kerak..." K.D.Ushinskiy ushbu so'zlari bilan pedagoglik odobining "me'yori"ni belgilaydi.

A.S.Makarenko tarbiyachi odobiga alohida ahamiyat beradi. Ammo, u shunday pedagogik odobga, chunonchi, tarbiyachilarning bolalarga hamisha muloyim ovoz bilan gapirishlariga va kollektivda qandaydir janjal ko'tarilishidan o'zlarini chetga olishlariga, tarbiyalanuvchilarning nojo'ya qiliqlarini jamoatchilikdan yashirish odatiga o'rgatishlariga, gunoh qilgan o'quvchini jazolamaslikka qarshi edi. A.S.Makarenko uzundan-uzoq nasihatgo'ylikni pedagoglik odobsizlikning bir ko'rinishi, deb hisoblardi. Demak, A. S. Makarenkoning pedagoglik odobi, uning tarbiyalanuvchilarga

g'amxo'rona, ammo ortiqcha pand-nasihatsiz kuchli ta'sir ko'rsatishida ko'rinadi. O'z hissiyotlarining jo'sh urib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ba'zan esa, odam o'zida paydo bo'lgan hissiyotlarni o'zining tashqi ko'rinishi bilan ham, ovozining ohangi bilan ham sezdirmaslik o'qituvchi odobining muhim xislatidir.

Bolalarning ortiq darajada harakatchanligi va sho'xligi pedagoglik odobiga ega bo'lgan o'qituvchini g'azablantirmaydi, chunki u harakatchanlik bolaga xos tabiiy xususiyat ekanligini yaxshi biladi. Pedagoglik odobini egallagan o'qituvchi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, o'zlariga xos xususiyatlarini alohida hisobga olib, ularni to'g'ri tushunadi va to'g'ri baholay oladi. O'qituvchi o'quvchida biror kamchilikni aniqlasa, unga to'g'ri yondasha bilishi, unga o'z vaqtida yordam uyushtirishi kerak. Shu bilan birga u bolaga hamma vaqt talabchan bo'lishi kerak.

Talabchanlik bola xulqini doimiy kontrollik qilib borishda ifodalanadi. Hech qachon o'quvchini haqoratlash, jazo bilan uni qo'rqitish yaramaydi, o'quvchining shaxsiga tegish, insoniy qiymatini tushirish o'qituvchisi uchun mutlaqo yot narsadir. Bolalarga ishonch, e'tibor va hurmat hamisha ularga yaxshi ta'sir kiladi. Hamma yoshdagi bolalarga, ayniqsa o'smirlarga samimiy, adolatli bo'lgan, ularni hurmat qiladigan o'qituvchilar o'quvchilarga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Pedagoglik odobini egallashda ilg'or o'qituvchilarning taj-ribalarini, pedagogik. nazariyani va amaliy ish usullarini chuqur o'rganish, hayotda ularni ishlata bilish o'qituvchiga

tarbiyaviy ishda, bu sohadagi qiyinchiliklarni engishda yordam beradi. Pedagoglik odobi, pedagoglik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'lib, o'quvchilarda xarakterning ijobiy sifatlarini tarbiyalashga yordam beradi. O'quvchilar rostgo'ylik, uyushqoqlik, kamtarlik, o'rtoqlik, sezgirlik kabi xislatlarni avvalo maktabda, o'qituvchilardan o'rganadi.

O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning iltimos, mas-lahat, ishontirish, talab qilish, buyruq va tanbeh berish, jazolash, rag'batlantirish kabi ko'p usullari bor. Ammo bulardan me'yor bilan foydalanilmasa yaxshi natijaga erishish mumkin emas. Me'yor hissi o'qituvchini o'quvchidan uzoqlashtirmaslikka, ularga juda balanddan turib qaramaslikka, pedagog obro'yini tushiradigan darajada o'rtoqlashib ketmaslikka yordam beradi.

Pedagog mehnatining muhim quroli uning nutqidir. O'qituvchi o'z nutqida o'rinsiz ohang bilan bolalarni ranjitmasligi, o'quvchilarni ishontirmaydigan, erkalatadigan nosamimiy gaplarga yo'l qo'ymasligi lozim.

Bolalar bilan yaxshi aloqa o'rnatishda o'qituvchiga imkoniyat beruvchi barcha ma'naviy xislatlarning yig'indisi, nihoyat, shunga olib keladiki, o'quvchilar oldida o'qituvchi obro' qozonadi, bu esa ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Tarbiyalanuvchilar ko'z oldida izzat-hurmatga sazovor bo'lgan o'qituvchi obro'li pedagog hisoblanadi. Pedagog o'z obro'yi tufayli bolalarga kuchli va tez ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchi bolalar oldida o'zining mehnatsevarligi, bilimi, xulqi bilan obro' qozonadi. Orden va medallarga ega bo'lgan o'qituvchilar o'quvchilar orasida hamisha chuqur hurmatga sazovordirlar. Masalan, Mehnat Qahramonlari O. Sharafiddinov, O. Sultonova, Respublikada xizmat ko'rsatgan o'qituvchi unvonini olgan ordenli Habiba Yusupova, X. Norova, K.Rasulev, M. Ahmedova, T. Shermuhamedov va boshqa juda ko'p o'qituvchilar o'quvchilar orasida zo'r obro'ga egalar.

O'qituvchi obro'li bo'lish uchun o'quvchilarga har tomonlama namuna ko'rsatishi kerak. Uqituvchining bilimi va axloqida o'quvchilar biror kamchilikni, nuqsonni sezib qolsalar, ularda shu o'qituvchiga nisbatan hurmat yo'qoladi. Bunday o'qituvchi keyin o'zida obro' qozonish uchun o'quvchini qo'rqitish, unga adolatsiz talablar qo'yish, uni kamsitish va boshqa sun'iy pedagogiga yot usullarni qo'llay boshlaydi.

K. D. Ushinskiy bunday qo'rqitish va asossiz buyruqlarga tayangan obro'yga qarshi edi. U "insonni tarbiyalashdagi eng asosiy yo'l e'tiqoddir, e'tiqodga esa ishontirish yo'li bilangina ta'sir etish mumkin" deydi. CHin obro' tarbiyachining mahoratiga va uning ijobiy ma'naviy sifatlariga asoslanadi. CHin obro'ga ega bo'lgan pedagogning kuchi avvalo uning bolalar jamoasini uyushtirishida va shu jamoa orqali bolalarga ta'sir etishida namoyon bo'ladi.

Obro' qandaydir sun'iy usullar bilan emas, balki uning tarbiyachilikdagi butun hayoti,

kundalik ibratli xulqi, axloqi, intizomlilik bilangina qo'lga kiritiladi. A.S.Makarenko tarbiyachilarning ba'zan erishadigan soxta obro'larini qattiq tanqid qilib, ularning bir necha turini ko'rsatadi.

1. Tazyiq etish obro'yi bunda tarbiyachi qo'rqitish bilan va o'zining boshqa tazyiq etuvchi usullari bilan bolalarga ta'sir o'tkazadi;

2. Masofa obro'yi bunga ko'proq eski maktab pedagoglari intilardilar, o'quvchilar bilan birga kamroq bo'lish, ulardan naribroq turishga harakat qilardilar;

3. Pedantizm obro'yi bunda tarbiyachi byurokratga aylanadi, «bolaning har bir harakatida u tartib va intizomni buzayotganligini ko'radi;

4. Nasihatgo'ylik obro'yi bu pand nasihatgo'ylikdan iborat;

5. Soxta yaxshilik obro'yi bunda tarbiyachi o'zining yumshoq muomalaligi, yon beruvchanligi, talabchan emasligi bilan bolalarni moyil qiladi. Shuning kabi soxta obro'ga ega bo'lgan pedagoglarga nisbatan ham o'quvchilarning "hurmati" uzoq saqlanmaydi.

O'qituvchining bolalar oldida obro' qozonishiga o'z sinfidagi o'quvchilarni yaxshi o'rganishi ham ta'sir qiladi. Bunda hatto o'quvchilarning otini, familiyasini yaxshi yodlab olish ham muhimdir...

O'qituvchining obro'yi maktab pedagoglari jamoasining obro'yi bilan bog'liqdir. Har bir pedagog o'zining shaxsiy obro'yidan tashqari, boshqa o'qituvchilar, butun pedagoglar jamoasi obro'yining ham ko'tarilishiga erishmog'i lozim. O'qituvchi uchun o'z ustida ishlash, o'zini- o'zi tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. O'qituvchi

o'zining o'quvchilariga berayotgan olijanob fazilatlarining hammasiga o'zi ega bo'lishi kerak.

O'qituvchi bolaga shunday ta'sir o'tkazishi kerakki, bolalar o'qituvchi berayotgan narsalarni o'zlariga o'zlashtirib va singdirib olsinlar. Buning uchun o'qituvchi ham o'qitishi, ham o'zi o'qishi, o'zini tarbiyalashi lozim. Barcha mashhur pedagoglar o'zlarining sevgan ishlariga sabot va matonat bilan tayyorlanib, butun hayotlari davomida o'zlarini-o'zlari tarbiyalaganlar.

O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashi uchun, avvalo o'zini atroflicha chuqur o'rganishi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni ko'ra olishi kerak. O'zini-o'zi o'rganish boshqa kishini anglash uchun ham zarurdir. Boshqa kishilarni o'rganmay, o'zini boshqalar bilan qiyos qilmay turib, o'zini shaxs sifatida o'rganish mumkin emas. O'zini anglash, o'zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat jarayonida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi.

Eng avvalo o'qituvchi o'zida pedagoglik qobiliyatining qanday xislatlari borligini o'rganishi kerak, Pedagoglik layoqat esa, masalan, o'qituvchining pedagoglik faoliyatini, ya'ni odamlarni va boshqalarni sevishida, zarur sabr-toqatga ega bo'lishida ko'rinadi. Ko'p o'qituvchilar o'zlarini pedagoglik faoliyatiga layokatli deb hisoblaydilar va shu faoliyat yo'lidan ketadilar.

Agar o'qituvchi o'z ishidan qanoat hosil qilmasa, ishi unga shodlik keltirmasa, odam bolasini tarbiyalash uning hayot maqsadi bo'lmasa, u bu kasbni qanchalik to'g'ri tanlaganligi haqida o'ylab ko'rishi kerak. Bu

masalani to'g'ri hal qilishga kishining o'z sifatlarini, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay bilishi yordam beradi.

Pedagoglik faoliyatiga muhabbat qo'ygan o'qituvchi ishga chin ko'ngildan berilib ishlaydi, hech qanday formalizmga yo'l qo'ymaydi. O'z kasbini sevgan o'qituvchi doimiy ravishda g'oyaviy-siyosiy saviyasini oshirish va nazar doirasini kengaytirish, o'z predmetini chuqur bilish ustida qunt bilan ishlaydi. Demak, o'qituvchi o'quvchilarga bilim berib, tarbiyalab, ularni-rivojlantirib borish bilan birga, o'z ustida tinmay ishlab, o'zining g'oyaviy- siyosiy ongini doimiy ravishda o'stirib va pedagoglik mahoratini takomillashtirib boradi.

Ilg'or o'qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangilik-larni bilishga intiladi, boshqa o'qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o'z shaxsiy tajribalarini umumiyashtirishga harakat qiladi.

Gertsen tarbiyachining talanti bolalarga muhabbat va sadoqatdir, deb to'g'ri ko'rsatgan edi. O'qituvchining bolalarga muhabbati avvalo uning bolalar bilan bo'lgan muomalasidan, o'ziga xos bolalar dunyosiga kirishidan qanoatlanish tuyg'usini hosil qilish demakdir. Bolalarga muhabbat har bir bolaga, shu jumladan, o'zlarining ulgurmasliklari va intizomsizliklari bilan o'qituvchini ancha xafa qiladiganlarga ham ziyraklik va e'tibor bilan munosabatda bo'lishda aks etadi. Shuning uchun o'qituvchi o'zida kuzatuvchilikni, odilona talabchanlikni, samimiyatlikni, g'amxo'rlikni tarbiyalashi lozim.

O'qituvchi pedagog, o'rta va oliy ta'lim tizimi xodimi bo'lib, o'quvchi va talabalarni o'qitish bilan shug'ullanadi. Boshqa nomlari: „ustoz“, „domla“, „muallim“. O'qituvchi dars paytida. Los Anjeles, AQSh. O'qituvchi, muallim — turli yo'nalishdagi o'rta umumiy ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis. Oliy maktab O'qituvchilari „domla“ deb yuritiladi, ular „o'qituvchiprof.“ tarzida umumlashma nom bilan ham ataladi. Shuningdek, o'qituvchilarga nisbatan „muallim“ yoki „pedagog“ atamasi ham qo'llaniladi.

O'qituvchilik kasbi juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta'lim tarbiya tufayligini hayotini davom ettira va rivojlantira oladi. Tamaddunning Ossuriya, Bobil, Misr, Turkiston, Hindiston, Xitoy singari qadimiy o'choqlarida topilgan tarixiy madaniy obidalar bu o'lkalarda o'qituvchilik kasbi juda qadim zamonlarda shakllanganligini ko'rsatadi. Bu davrlarda eng oqil, tajribali kishilar o'qituvchilik bilan shug'ullanishgan va ular boshqalarga qaraganda katta imtiyozlarga ega bo'lishgan.

Yunonistonda faqat ozod kishilargina o'qituvchilik qilishga haqli hisoblangan. Ular mamlakatning turli yoshlarida grammatiklar, pedanomlar, didaskallar, pedotriblar shaklida nomlanganlar va ko'pincha o'z shaxsiy maktablariga ega bo'lganlar. Boy oilalarda esa, ta'lim-tarbiya ishi bilimli va savodli qullarga topshirilib, ular paydagoglar

(„pedagog“ so'zi shundan kelib chiqqan), ya'ni „bola yetaklovchilar“ deb atalgan.

Rim imperiyasida o'qituvchi imperator nomidan tayinlanadigan davlat amaldori sanalgan. O'rta asrlarga kelib, G'arb mamlakatlarida o'qituvchilik bilan, asosan, cherkov xizmatchilari shug'ullanishgan. Shaharlarda dunyoviy maktablar tashkil topgach, hunarmandchilik sexlari va savdogarlar gildiyalari tomonidan taklif etilgan yollanma o'qituvchilar paydo bo'ldi. Texnika taraqqiy etib, fkazdlar ko'payishi bilan o'qituvchilik eng ommaviy kasblardan biriga aylandi.

Chunki ma'lum darajada ta'lim ko'rmagan odam texnika vositalaridan foydalana olmas edi. Buning uchun esa, ko'plab maktab va o'qituvchi kerak bo'lardi. Ayni vaqtda, 18—19-asrlarda boy oilalarda murabbiy, guvernyor singari uy o'qituvchilaridan foydalanish keng yoyildi.

Sharq mamlakatlari, jumladan, Turkiston o'lkasida ham o'qituvchi eng qadimiy va obro'li kasb hisoblanib, „ustoz“ deb e'zozlangan. O'lkaga islom dini kirib kelishi bilan har bir qishloq, shaharlardagi har bir mahallada masjid va deyarli har bir masjid qoshida maktab tashkil etildi. Bu maktablarning o'qituvchilari domla deb ataldi. Shuningdek, maktablar alohida shaxslar uyida ham tashkil etilib, ular maktabdor deyilgan. O'lkamizda qizlarni o'qitishga ham alohida e'tibor qaratilib, savodli ayollar uylarida otinoyi maktablari tashkil etilgan. Bu maktab O'lari otinoyi yoki otinbibi deb yuritilgan. Ta'lim davlatdan ajratilganligi, bolalarning o'qishi, asosan, ota-onalarning ishi

hisoblangani uchun ham Turkistonda o'qituvchilik kasbiga maxsus tayyorlanilmagan. Madrasa ko'rgan yoki maktabdan so'ng o'z ustida ishlagan savodli kishi o'qituvchilik bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan.

19-asrning oxiridan, ya'ni o'lkada ma'rifatchilik harakati paydo bo'lishi bilan o'qituvchining saviyasiga alohida e'tibor beriladigan bo'ldi. Turkistonda an'anaviy yo'sinda o'qitadigan o'qituvchilar bilan birga Yevropa mamalakatlaridan o'zlashtirilgan usullarda dars beradigan yangi muallimlar ham faoliyat ko'rsata boshladi. Bu hol, ayniqsa, jadidchilik harakati avj olgan kezlarda ancha keng yoyildi. o'qituvchilar saviyasining oshganligi millat ruhiyatida uyg'onish bo'lishiga, taraqqiyotning bir qadar tezlashuviga olib keldi.

O'qituvchi oldida turgan vazifalar va uning mavqei jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha bo'lgan. Jamiyat gullab-yashnagan davrda unga e'tibor yuksak bo'ddi yoki o'qituvchining mavqei ko'tarilgani uchun jamiyat rivoj topdi. Oktabr to'ntarishi amalga oshgandan so'ng va sho'rolarning o'z oldiga qo'ygan ommani yoppasiga savodli qilish vazifasini bajarish uchun Turkistonda ham tizimli ravishda o'qituvchi tayyorlash yo'lga qo'yildi.

### 3. XULOSA

Pedagoglik faoliyatiga muhabbat qo'ygan o'qituvchi ishga chin ko'ngildan berilib ishlaydi, hech qanday formalizmga yo'l qo'ymaydi. O'z kasbini sevgan o'qituvchi doimiy ravishda g'oyaviy-siyosiy saviyasini oshirish va nazar doirasini kengaytirish, o'z predmetini chuqur

bilish ustida qunt bilan ishlaydi. Demak, o'qituvchi o'quvchilarga bilim berib, tarbiyalab, ularni-rivojlantirib borish bilan birga, o'z ustida tinmay ishlab, o'zining g'oyaviy-siyosiy ongini doimiy ravishda o'stirib va pedagoglik mahoratini takomillashtirib boradi.

Agar o'qituvchi o'z ishidan qanoat hosil qilmasa, ishi unga shodlik keltirmasa, odam bolasini tarbiyalash uning hayot maqsadi bo'lmasa, u bu kasbni qanchalik to'g'ri tanlaganligi haqida o'ylab ko'rishi kerak. Bu masalani to'g'ri hal qilishga kishining o'z sifatlarini, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay bilishi yordam beradi.

### ADABIYOTLAR:

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007.1-2 kitob.
2. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2002
3. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet,
5. 5002.- 96 b.
6. Karimova V.M. va boshk. Mustaqil fikrlash. - T.: Shark.-2000.- 112 b.
7. Karimova V.M., Sunnatova R. "Mustaqil fikrlash" o'quv qo'llanmasi
8. o'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyoti.-T.: Shark, 2000.- 16 b.
9. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya perev. S angl.-SPb.: "Piter",1999 - 688 s.
10. Metod effektivnogo obucheniya vzroslyx. Uchebno-metodicheskoe
11. posobiya. (Avtorskiy kollektiv) - Moskva - Berlin, 1998 - 124 s.